

**“DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI
BOLALARDA DO‘STONA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI”**

Sotvoldiyeva Shaxloxon Shavkatbekovna

Andijon viloyati, Jalaquduq tumani

13-DMTT tarbiyachisi

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy taraqqiyot, ta‘limiy islohot, uzluksiz ta‘lim, o‘yin, didaktika, pedagogik texnologiya.*

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ta‘lim sohasi e‘tirof etildi. Ustuvor soha bo‘lgan ta‘limni tubdan yangilash, uni mazmunan boyitish, ta‘lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish va rivojlangan ta‘lim darajasiga ko‘tarish mamlakatda olib borilayotgan ta‘limiy islohotlarning asosiy g‘oyasi sanaladi.

Maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16-avgust kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori imzolangan. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta‘lim muassasalarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o‘rni hamda, respublikada ta‘lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta‘kidlangan.

Ko‘rinib turibdiki, Prezidentimiz tomonidan yildan-yilga maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilayotgani bejizga emas. Zero, maktabgacha ta‘lim ta‘lim tizimlarining ilk bo‘g‘ini ekan, boshqa ta‘lim tizimining poydevori hamdir. Demak, bolalarning kelajaklari ham shu yerda bunyod etiladi. Zero, Prezidentimizning quyidagi fikrlari g‘oyat o‘rinlidir. “Yoshlarimizga munosib ta‘lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oliy

o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak. Maktabgacha ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratayotganimiz bejiz emas, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Yoshlar tarbiyasiga bugundan e‘tibor bermasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin”⁴⁸.

O‘tib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e‘tiqodini o‘stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridan boshlanadi va bugungi kunda bu masala muassasalarning dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma‘naviy boylilik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Zero Prezidentimiz “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi”,⁴⁹ – deb jon kuydirib ta‘kidlashlari buning dalilidir.

Barchamizga ma‘lumki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang – barangdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining o‘yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg‘a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Ma‘lumki, bolaning yoshi ulg‘ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari, uning atrofidagi narsa va xodisalar bo‘yicha dunyoqarashi kengayib boradi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, ta‘lim muassasasidagi pedagogik jarayon o‘qitishning an‘anaviy usullari o‘rnini egallamaydigan, balki ularni o‘zaro to‘ldiruvchi innovatsion faol texnologiyalarning qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida jamiyatning iqtisodiy, didaktik, psixologik imperativlariga javob beruvchi texnologiya talab qilinadi. O‘zgarib borayotgan dunyoda ta‘lim tizimi tashabbuskorlik, yangilikka intiluvchanlik, harakatchanlik, moslashuvchanlik kabi yangi sifatlarini shakllanti-rishi kerak. Bo‘lajak mutaxassis butun umri davomida mustaqil o‘rganishga intilishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi, ijtimoiy va kelajakdagi kasbiy sohalarga moslashishga, har qanday jamoada ishlay olishga qodir bo‘lishi,

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasidan.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-oktabr kuni “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalari”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan.

ortiqcha yuklanishlar, stressli vaziyatlarga tayyor bo'lishi va ulardan tez chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Shunday ijtimoiy va kasbiy jihatdan faol shaxsni tarbiyalash zamonaviy pedagoglardan o'quv jarayonida, eng avvalo, o'quvchilarning bilim olish, muloqot qilish va shaxs sifatidagi faolliklarini rivojlantiruvchi yangi usullar, texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi.

O'qituvchining o'quvchi bilan samarali natijalarga erishishga ko'maklashuvchi, o'rgatuvchi o'zaro ta'sirlarining turlicha usullari mavjud.

O'yin – u yoki bu buyumdan qanday foydalanish to'g'risidagi masalani hal qilishda moslashuvchanlikni ko'zda tutuvchi ichki maqsadli faoliyat.

Bola o'yin jarayonidan qoniqish hosil qiladi, uning natijasi esa unchalik muhim emas. O'yinda bolaning jismoniy, aqliy, hissiy sifatleri ijobiy jarayonga qo'shiladi va undan ijtimoiy o'zaro aloqalar talab qilinishi mumkin. Bola uchun o'yin bu kattalar uchun nutq kabi narsadir. Bu o'z tuyg'ularini ifodalash, munosabatlarni o'rganish va o'z-o'zini ko'rsatish vositasidir. Ularga shunday imkoniyat berilganida bolalar o'z tuyg'ulari va ehtiyojlariga taxminan kattalar qilganlari kabi berilib ketadilar.

O'yinni tizimli o'rganishga urinishni birinchi bo'lib, XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross amalga oshirdi. U o'yinda kelajakda yashash uchun kurash sharoitlariga nisbatan instinktlarning ogohlantirishi bo'lib o'tadi, deb hisoblagan.

K.Byuler o'yinni «funksional huzur» olish uchun bajariladigan faoliyat sifatida ta'riflaydi. Z.Freyd izdoshlari o'yinda chuqur instinktlar yoki intilishlar ifodasini ko'radilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish

quroli bo'lishi bilan birga, yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. O'zgacha qilib aytganda, o'yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir.

Shuning uchun bola shaxsida bu fazilatga ilk bolalik davrlaridanoq boshlab asos solinishi muhimdir. Do'stlik, o'rtoqlikni tarbiyalash muammosi axloqiy tarbiya, shaxsning turli xil munosabatlari o'z ifodasini topadi. Bu munosabatlar shaxsning mehnatga, jamiyatga, hayotga, ota-ona, qarindosh-urug', tengdoshlarga bo'lgan axloqiy munosabatlarida o'z aksini topadi va odamning ma'naviy dunyosini ifodalaydi. Do'stlik, o'rtoqlik axloqiy fazilat sifatida axloq nazariyasi rivoji bilan bog'liq bo'lib, uning muhim manbalaridan biri xalq pedagogikasi durdonalari deyish mumkin. Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy me'rosi, asori-atiqalari, xalq og'zaki ijodi namunalarida do'stlik va o'rtoqlik hislari ulug'lanib, chin do'stlik, unga sadoqat tuyg'ularining bola shaxsi shakllanishiga ta'siri benihoya kattadir va ular xalq qalbiga yaqinligi, soddaligi

bilan ham bola ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, hamjihatlik tuyg'ularini shakllantrishda ularda yetakchi faoliyat hisoblangan o'yin faoliyatidan foydalanish yaxshi natija beradi. Oyin yordamida ularda bir qancha insoniy fazilatlarini shakllantirish sodda va qulay jarayondir. O'yin jarayonini to'g'ri tashkil etish va o'yin turlaridan samarali foydalanish kutilgan natijaga olib boradi. Bolalarda ilk yoshidan shakllangan chin do'stlik tuyg'ulari uni butun umri davomida tark etmaydi. Zero, do'stga sadoqat ruhida tarbiyalangan bola yurtiga ham, oilasiga

ham sadoqatli inson bo'lib kamolga yetadi. Bolalarda ilk yoshida o'yinchoqlar yordamida do'stlik, o'rtoqlik tuyg'ulari uyg'ona boshlasa, bog'cha davriga kelib esa asta-sekin jamoada shakllana boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 984-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018 y., 07/18/3955/1978-son, 13.12.2018 y., 06/18/5597/2300-son, 05.07.2019 y., 06/19/5759/3385-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son, 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son.

3. Adashboyev T. Orzularim – qo'sh qanotim. –Toshkent, 2003.

4. Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda intyerafaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim. –Toshkent, 2007. 6-son.

5. Bolalar entsiklopyediyasi. 2-nashr. –Toshkent, 2002.

6. Boymatova A.G., Djumabayeva M.B., Aliyeva K.S. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari" moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent. TDPU, 2018.

7. Волков, Б. С. Психология детства: учебно-метод. пособие / Б.

8. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. –Toshkent, 2013.

9. Jo'rayeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi. –Toshkent, 2008. 5-son.

10. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent. TDPU, 2017.